

Korxonalar va tashkilotlar

(2018 yil yanvar-dekabr)

2018 yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatda 6773 taga yaqin korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 61 taga ko'pdir.

Natijada, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 3646 ta (8,4 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 47208 tani tashkil etgan.



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnilida, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichmabosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiq qilinmoqda.

Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.


**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha korxonalar
va tashkilotlar soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



Ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslar.

2019 yilning 1 yanvar holatiga 59931 ta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 59,5 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 9,8 % savdo, 8,2 % sanoat, 3,9 % qurilish, 2,8% yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 1,4 % tashish va saqlash, 0,7 % axborot va aloqa, 2,0 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda 29,2 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



Hududlar bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlarning soni eng ko'pi Samarqand shahri (8262 ta), Urgut (2309 ta), Pastdarg'om (2127 ta) va Samarqand (1797 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Nurobod (720 ta), Paxtachi (667 ta) hamda Qo'shrabot (581 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

**Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlarning yillar kesimida soni, birlikda.
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**





Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 47208 tani tashil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 3646 ta (8,4 %) ga o'sgan.


01.01.2018 y.
43562 ta

01.01.2019 y.
47208 ta

O'tgan yilga nisbatan
3646 taga oshgan


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 7,7 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 22,1 % savdo, 18,6 % sanoat, 8,8 % qurilish, 6,5 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 3,3 % tashish va saqlash, 1,6 % axborot va aloqa, 2,2 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 29,2 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar ulushi, foizda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari,)



Hududlar kesimida qaralganda, faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlarga soni eng ko'pi Samarqand shahri (7848 ta), Urgut (4879 ta), Pastdarg'om (4129 ta), Ishtixon (3770 ta) va Payariq (3736 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Qo'shrabot (1356 ta), Paxtachi (1369 ta) tumanlarida hamda Kattaqo'rg'on shahrida (914 ta) korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

**Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar
va tashkilotlar soni, birlikda
(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)**



**Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning
yillar kesimida soni, birlikda
(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)**

• 01.01.2017 y.

- 19990 ta

• 01.01.2018 y.

- 21061 ta

• 01.01.2019 y.


- 25066 ta



Yangi tashkil etilgan yuridik shaxslar.

2018 yil yanvar-dekabr oylarida 4831 ta korxona va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2017 yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 42,7 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar Samarqand shahri (1429 ta), Pastdarg'om (388 ta), Samarqand (370 ta) va Urgut (362 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Nurobod (131 ta), Narpay (115 ta) hamda Paxtachi (96 ta) tumanlarida korxona va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi kamligini kuzatish mumkin.

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning soni, birlikda (fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rirlganda, eng ko'pi sanoat (1058 ta), savdo (946 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (615 ta) qurilish (556 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kami esa sog'lqn ni saqlash va ijtimoiy xizmatlar (117 ta), axborot va aloqa (82 ta) hamda tashish va saqlash (150 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.

**Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy
faoliyat turlari bo'yicha yillar kesimidagi soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**

	01.01.2017 y.		01.01.2018 y.		01.01.2019 y.	
	Korxonalar soni	ulushi, %	Korxonalar soni	ulushi, %	Korxonalar soni	ulushi, %
Viloyat bo'yicha jami	2385	100	3385	100	4831	100
Sanoat	467	19,6	895	26,4	1058	21,9
Savdo	616	25,8	680	20,1	946	19,6
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	211	10,2	476	14,1	615	12,7
Qurilish	263	8,9	338	10,0	556	11,5
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	235	9,9	362	10,7	474	9,8
Tashish va saqlash	104	4,4	116	3,4	150	3,1
Axborot va aloqa	66	2,8	82	2,4	82	1,7
Sog'lqn ni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	49	2,1	94	2,8	117	2,4
Boshqa turlari	374	15,7	342	10,1	833	17,3

**Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy
faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning yillar
kesimida soni, birlikda**






❖ TIJORAT KORXONALARI.

2019 yil 1 yanvar holatiga 21225 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'ssatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 4884 ta, oilaviy korxonalar – 2476 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 11869 ta va 1746 boshqa tijorat korxonalarini tashkil etadi.

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo`yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarning umumiy soni, birlikda (*fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari*)




❖ Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar.

2019 yil 1 yanvar holatiga faoliyat ko'ssatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 396 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 116 taga yoki 41,4% ga o'shgan. Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'ssatayotgan korxonalardan 291 tasi qo'shma korxonalar, 105 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.


Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni, birlikda



Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar yillar kesimida soni, birlikda



Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda.




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi Samarqand shahar (203 ta yoki jamidagi ulushi 51,3 %), Urgut (39 ta yoki 9,8 %) va Jomboy tumanlari (33 ta yoki 8,3 %) hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Qo'shrabot (1 ta yoki 0,3%), Narpay (4 ta yoki 1,0 %), Paxtachi (5 ta yoki 1,3 %) va Ishtixon (6 ta yoki 1,5 %) tumanlariga to'g'ri keladi.

Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlarni 2019 yil 1 yanvar holatiga ko'rsak, eng ko'p sanoatda 242 tani (61,1 %), savdoda 57 tani (14,4 %) hamda boshqa faoliyat turlarida esa 23 tani (5,8 %) tashkil qilgan. Eng kamlari esa sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 4 tani (1,0 %), axborot va aloqada 3 tani (0,8 %), tashish va saqlashda 7 tani (1,8 %) qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 29 tani (7,3 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 11 tani (2,8 %) va qurilishda 20 tani (5,1 %) tashkil qilgan. Ko'rinish turibdiki faoliyat yuritadigan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi sanoat va savdo

faoliyat turiga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulush esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda




Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar.

2018 yilning yanvar-dekabr oyida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarning soni 127 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 71 taga ko'paygan.

Bunda, Rossiya Federatsiyasi rezidentlari kapitali ishtirokida – 17 ta, Turkiya Respublikasi – 26 ta, Xitoy Xalq Respublikasi - 11 ta, Qozog'iston Respublikasi – 5 ta va Koreya Respublikasi – 14 ta yangi korxonalar ro'yxatdan o'tgan. Shuningdek, 2018 yil davomida Afg'oniston Islom Respublikasi, Hindiston

Respublikasi, Germaniya Federativ Respublikasi, Ukraina, Ozarbayjon Respublikasi va boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining davlatlar kesimidagi ulushi, %



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoat (51 ta), savdo (29 ta), qurilish (17 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (16 ta) va boshqa faoliyat turlari (7 ta) hissasiga to'g'ri keladi.


Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha

soni, o'sish dinamikasi

	2017 yil yanvar-dekabr		2018 yil yanvar-dekabr	
	Jami	Umumiyl soniga nisbatan %	Jami	Umumiyl soniga nisbatan %
Sanoat	38	67,9	51	40,2
Savdo	4	7,2	29	22,8
Qurilish	2	3,6	17	13,4
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	8	14,3	16	12,6
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1	1,8	5	3,9
Axborot va aloqa			1	0.8
Tashish va saqlash			1	0.8
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish				
Boshqa turlari	3	5,4	7	5,5


Kichik korxona va mikrofirmalar soni.

2019 yil 1 yanvar holatiga viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 19629 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2018 yil 1 yanvar holatiga qaraganda 22,6 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi, yani 6577 tasi (33,5 %) Samarqand shahri, 1829 tasi (9,3 %) Urgut, 1540 tasi (7,4 %) Pastdarg'om hamda 1381 tasi (7,0 %) Samarqand tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 19629 ta kichik korxona va mikrofirmalarning 5517 tasi (28,1 %) – savdo, 4621 tasi (23,6 %) - sanoat, 2196 tasi (11,2 %) - qurilish, 1881 tasi (9,6 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1611 tasi (8,3 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi, 802 tasi (4,1 %) - tashish va saqlash, 398 tasi (2,0 %) - axborot va aloqa sohasi,

458 tasi (2,3 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, shuningdek 2145 tasi (10,9 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.


Shundan ko'riniib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



2018 yil yanvar-dekabr oylarida 4312 tadan ziyod kichik korxona va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 32,3 % ga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar Samarqand shahri (1319 ta), Samarqand (349 ta), Pastdarg'om (332 ta) va Urgut tumanlari (319 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Paxtachi (78 ta), Qo'shrabot (86ta) hamda Narpay (94 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda





Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi sanoatda (1058 ta), savdoda (946 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (613 ta), qurilishda (556 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (82 ta) sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (116 ta), hamda tashish va saqlashda (149 ta) tashkil etilgan.

Oilaviy korxonalar soni


 Yuridik shaxs sifatida davlat ro`yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni - 2019 yilning 1 yanvar holatiga 2574 tani tashkil etib, ulardan 2476 tasi yoki 96,2 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yhatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 60,3 % ga oshganligini ta'kidlash lozim.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 33,9 % yoki 840 tasi sanoat, 27,4 % yoki 678 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 17,8 % yoki 440 tasi savdo, 9,7 % yoki 240 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo`jaligi, 1,1 % yoki 28 tasi qurilish, 0,9 % yoki 23 tasi tashish va saqlash, 0,5 % yoki 12 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,5 % yoki 37 tasi axborot va aloqa hamda 7,2 % yoki 178 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to`g`ri kelmoqda.

Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, foizda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'pi sanoat hamda yashash va ovqatlanish xizmatlari, eng kami esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, tashish va saqlash kabi faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Tugatilgan korxona va tashkilotlar

2018 yilning yanvar-dekabr oylarida jami 1722 ta korxonalar va tashkilotlar faoliyatini tugatgan.

Ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan -7419 taga tugatish kamaygan.

Albatta xo'jalik yurituvchi subyektlarning bugungi kun talablariga moslashishi va raqobatbardoshligini oshirish borasida yurtimizda talaygina ijobiy o'zgarishlar ko'zga tashlanib, qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Buning natijasida mamlakatimizda tadbirkorlarning bugungi kun bozoriga moslashish darajasi ortib bormoqda.

Misol tariqasida 2016 yilda 5955 ta, 2017 yilda 9141 ta korxonalar va tashkilotlar o'z faoliyatini yakunlagan bo'lsa, joriy yilning yanvar-dekabrda ushbu ko'rsatkich 1722 tani tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 7419 taga tugatish kamaygan.

Faoliyati tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning yillar kesimida dinamikasi, birlikda
(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)




Tugatilgan 1088 ta korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha olib qaraydigan bo'lsak, 314 tasi (28,9 %) savdo , 215 tasi (19,8 %) sanoat, 122 tasi (11,2 %) qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 102 tasi (9,4 %) qurilish, 75 tasi (6,9 %) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 25 tasi (2,3 %) tashish va saqlashda, 23 tasi (2,1 %) axborot va aloqada, 8 tasi (0,7 %) sog'lioni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda 204 tasi (18,7 %) boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rilib turibdiki, tugatilgan korxonalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'lioni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri kelgan.

Faoliyati tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi
 (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

	01.01.2018 yil		01.01.2019 yil		
	Soni (birlikda)	jamiga nisbatan, % da	Soni (birlikda)	Jamiga nisbatan, % da	Farqi, (+,-)
Jami	1988	100	1088	100	-900
<i>shu jumladan:</i>					
qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	140	7,1	122	11,2	-18
sanoat	289	14,5	215	19,8	74
qurilish	213	10,7	102	9,4	-11
savdo	477	24,0	314	28,9	-163
tashish va saqlash	41	2,1	25	2,3	-16
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	115	5,8	75	6,9	-40
axborot va aloqa	46	2,3	23	2,1	-23
sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	374	18,8	8	0,7	-366
boshqa turlari	293	14,7	204	18,7	-89

Faoliyati tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilga nisbatan DINAMIKASI (+,-)



2018 yil yanvar-dekabr oylarida 978 ta kichik tadbirkorlik sub'ektlari tugatilgan. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda kichik tadbirkorlik sub'ektlari 503 taga kamayganini ko'rsatmoqda.

Tugatilgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi 313 tasi (32,0%) savdo, 215 tasi (22,0 %) sanoat, 102 tasi (10,4 %) qurilishda, 122 tasi (12,5 %) qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 75 tasi (7,7 %) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 25 tasi (2,6 %) tashish va saqlashda, 23 tasi (2,4 %) axborot va aloqada, 7 tasi (0,7 %) sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda 96 tasi (9,8 %) boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri kelgan.

Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash natijasida hududlarda ham tugatilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni yildan yilga kamayib bormoqda. Ushbu yo'nalishda asosan Samarqand shahrida -331 ta, Urgut -74 ta, Tayloq -36 ta hamda Samarqand tumanlarida -81 ta kichik korxona va mikrofirmalar o'tgan yilga nisbatan kam tugatilganligini statistik raqamlarda ko'rishimiz mumkin.

**Samarqand viloyati statistika
boshqarmasi
Statistik registrlarni yuritish bo`limi**

Tel.:71-230-85-42 (43)